



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

SHARQ TILINI O'QITISHDA INTERAKTIV TA'LIM VOSITALAR (VIDEODARSLAR, ONLAYN TA'LIM UCHUN PLATFORMALAR) DAN FOYDALANISH

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY
MAJMUA**

2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INISTITUTI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“SHARQ TILINI O‘QITISHDA INTERAKTIV
TA’LIM VOSITALAR (VIDEODARSLAR, ONLAYN
TA’LIM UCHUN PLATFORMALAR) DAN
FOYDALANISH”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Toshkent - 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **Tayanch modullari:** S.A.Nazarova - TDShU Xitoy filologiyasi kafedrası mudiri p.f.n. (PhD), dotsent,
D.M.Raxmatullayeva-TDShU Xitoyshunoslik Oliy maktabi o‘qıtuvchisi
D.A.Mutalov-Oriental universiteti, O‘zbek va sharq tillari kafedrası katta o‘qıtuvchisi.

Taqrizchi: f.f.d., prof. J.T. Ziyamuxamedov

*O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024- yil “29” noyabrdagi 4-sonli bayonnoma)*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.	9
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	12
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	20
V. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	27

I.ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning chet tili ta'limini kompyuter texnologiyalari asosida tashkil qilish, dars jarayonida an'anaviy o'qitish va aralash metodlarni qo'llash, til o'qitishda interaktiv ta'lim vositalaridan samarali foydalanish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarni dars jarayonida an'anaviy o'qitish va aralash metodlardan samarali foydalanish yutuqlarining turlari va ularning ta'lim sohasidagi qo'llanilish imkoniyatlaridan foydalanish, sharq tili darslarida so'zlarni yodlashda aralash metodlarni qo'llash va muammolarini hal etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- sharq tillarini o'qitishda an'anaviy va aralash metodlar (an'anaviy yondashuvni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish)ni samarali qo'llash hamda yangi yondashuvlarni ta'limda qo'llanilishi va uning imkoniyatlarini keng qamrovda tushuntirish;

- sharq tili darslarida so'zlarni yodlashda aralash metodlarni qo'llash va ularning ta'lim sohasidagi qo'llanilish imkoniyatlarini o'zlashtirish;

- onlayn platformalardan foydalanish orqali kommunikativ qobiliyatni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish (HelloTalk, iTalki, c.ai, chatgpt)ga doir usullarini amaliyotga tatbiq etish va muammolarini ko'rib chiqish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

“Xorijiy til (sharq tillari)” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- sharq tillarini o'qitishda an'anaviy va aralash metodlar (an'anaviy yondashuvni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish)ni samarali qo'llashni;
- sharq tillarni o'qitish metodlari tarixini;
- til o'qitish metodi va prinsiplarilarini;
- sharq tillarini o'qitishning asosiy vositalarini;
- o'quv materiallar bilan ishlashni;
- onlayn platformalardan foydalanish orqali kommunikativ qobiliyatni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish (HelloTalk, iTalki, c.ai, chatgpt)larini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- sharq tillarini o'qitishda an'anaviy va aralash metodlar (an'anaviy yondashuvni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish)ni samarali qo'llash;
- sharq tillarini o'qitishda ta'lim platformalari, o'quv materiallari, dars jadvali, vazifalarni va boshqa o'quv resurslar bilan ishlash usullaridan foydalanish;
- sharq tillarini o'qitishning asosiy vositalari bilan ishlash;
- interaktiv ilovalar-Anki, Quizlet, yoki Pleco kabi ilovalar yordamida so'z yodlashni qulaylashtirish;
- O'rganish jarayonini diversifikatsiya qilish;
- suhbat mashqlari, yozuv mashqlari va o'yinlardan foydalanish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- interaktiv ilovalar-Anki, Quizlet, yoki Pleco kabi ilovalar yordamida so'z yodlashni qulaylashtirish;
- virtual elementlar qo'shish orqali dars o'tish metodlarni tadbiq etish;
- sharq tillarini o'qitishning asosiy vositalarini dars jarayonida qo'llash;
- o'quv materiallarini strukturalash va formallashtirish hamda dars rejalarini taqdim etish;
- onlayn platformalardan foydalanish orqali kommunikativ qobiliyatni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish (HelloTalk, iTalki, c.ai, chatgpt) orqali zamonaviy dasturiy vositalar bilan ishlash **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

“Sharq tilini o‘qitishda interaktiv ta’lim vositalar (videodarslar, onlayn ta’lim uchun platformalar) dan foydalanish” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
			Jami	jumladan	
				Nazariy	Amaliy
1	Sharq tilini o‘qitishda onlayn ta’lim platformalari va ulardan foydalanish asoslari.	2	2	2	
2	Videodarslar, vebinarlar va elektron darsliklar yaratishga asoslangan zamonaviy dasturiy vositalar.	2	2	2	
3	Zoom, Microsoft teams, Edpuzzle, Google meeting, Voov meeting, Flipgrid, Loom, Canvalardan foydalanish.	2	2		2
4	Ta’limda keng q‘ollanuvchi platformalarni sharq tili darslarida tadbiq etish.	2	2		2
Jami:		8	8	4	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-MAVZU: SHARQ TILINI O‘QITISHDA ONLAYN TA’LIM PLATFORMALARI VA ULARDAN FOYDALANISH ASOSLARI.
(2 SOAT)**

Reja:

1. Sharq tilini o‘qitishda onlayn ta’lim platformalari va ulardan foydalanish asoslari. Onlayn platformalar va raqamli vositalar yordamida ta’limning yangi imkoniyatlari
2. Massiv ochiq onlayn kurslar (MOOC). Sharq tillarini o‘qitishda ta’lim platformalari, o‘quv materiallari.
3. Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish asoslari. Dars jadvali, vazifalarni va boshqa o‘quv resurslar bilan ishlash usullari.

2-MAVZU: VIDEODARSLAR, VEBINARLAR VA ELEKTRON DARSЛИKLAR YARATISHGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR. (2 SOAT)

Reja:

1. Ta’lim jarayonini interaktiv va samarali qilishning ahamiyati. Videodarslar, vebinarlar va elektron darsliklar yaratishga asoslangan zamonaviy dasturiy vositalar.
2. Dasturiy vositalar va ularning imkoniyatlari. Adobe Premiere Pro, iMovie,

Camtasia , OBS Studio, Adobe After Effects va Animaker dasturlari bilan ishlash.

3. Dasturlarni solishtirish

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG‘ULOT: ZOOM, MICRASOFT TEAMS, EDPuzzle, GOOGLE MEETING, VOOV MEETING, FLIPGRID, LOOM, CANVALARDAN FOYDALANISH. (2 SOAT)

Reja:

1. Zoom, Micrasoft teams, Edpuzzle, Google meeting, Voov meeting, Flipgrid, Loom, Canvalardan foydalanish.
2. Classin, Cisco Webex, Moodle, Jitsi Meet, BigBlueButton platformalardan foydalanish.
3. Platformalar tuzilishi, funksiyalari haqida ma’lumotlar berish.

2- AMALIY MASHG‘ULOT: TA’LIMDA KENG Q‘OLLANUVCHI PLATFORMALARNI SHARQ TILI DARSLARIDA TADBIQ ETISH. (2 SOAT)

Reja:

1. Onlayn ta’lim platformalarining ta’lim jarayonidagi roli va ahamiyati. Ta’limda keng q‘ollanuvchi platformalarni sharq tili darslarida tadbiq etish.
2. Sharq tili darslarida onlayn platformalarni qo‘llash imkoniyatlari. Onlayn darslarni tashkil qilish, video darslar yaratish.
3. Onlayn darslarni samarali tashkil etish uchun tavsiyalar va amaliyot. Video darslar orqali amaliy darslarni tashkil qilish.

O‘QITISH SHAKLLARI

- Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyalari
T – (threat)	• to'siqlar

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



- **Test**
- 1. Kuchsiz o‘zaro ta’sirni tashuvchi zarralarni ko‘rsating.
- A. W-бозон
- B. фотон



Qiyosiy tahlil

Fundamental o‘zaro ta’sir kuchlarini taqqoslang



- **Tushuncha tahlili**
- W -bozon tushunchasini izohlang...
-




Amaliy ko‘nikma

- Zarrachaning energiyasini xisoblang
-

“Davra suhbatı” metodi

Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilartomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatidata’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi vaaylana bo‘ylab har birta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




Belgilar:

1-ta’lim oluvchilar

2-aylana stol

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklidajoylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'oz beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: SHARQ TILINI O‘QITISHDA ONLAYN TA’LIM PLATFORMALARI VA ULARDAN FOYDALANISH ASOSLARI (2 SOAT)

Reja:

4. Sharq tilini o‘qitishda onlayn ta’lim platformalari va ulardan foydalanish asoslari. Onlayn platformalar va raqamli vositalar yordamida ta’limning yangi imkoniyatlari
5. Massiv ochiq onlayn kurslar (MOOC). Sharq tillarini o‘qitishda ta’lim platformalari, o‘quv materiallari.
6. Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish asoslari. Dars jadvali, vazifalarni va boshqa o‘quv resurslar bilan ishlash usullari.

Kalit so'zlar:

Bugungi kunda til o‘rganish jarayoni faqat darsliklar va an’anaviy metodlar bilan cheklanmaydi. Onlayn ta’lim platformalari, ayniqsa, Sharq tillarini o‘rgatishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bunday platformalar, o‘quvchilarga vaqt va joydan qat’i nazar, tilni o‘rganish uchun qulayliklar taqdim etadi. Onlayn ta’limning yangi shakllari, multimedia materiallari va interaktiv darslar orqali o‘rganish yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi.

An’anaviy o‘qitish metodlarida, asosan, darsliklar va auditoriya mashg‘ulotlariga tayaniladi. Biroq onlayn ta’limda bu metodlar yanada rivojlanib, interaktiv usullar bilan boyitiladi. Masalan, videodarslar, audio materiallar, o‘yin shaklidagi mashqlar va forumlar o‘quvchilarga tilni samarali o‘rganishga yordam beradi.

Bugungi kunda bir nechta mashhur onlayn ta’lim platformalari mavjud:

MOOC (Massiv Ochiq Onlayn Kurslar) – Bu platformalar, masalan, Coursera yoki edX, o‘quvchilarga butun dunyo bo‘ylab Sharq tillari bo‘yicha kurslar taklif etadi. Kurslar, asosan, video darslar, interaktiv mashqlar va baholash tizimlari orqali o‘qitiladi.

Interaktiv Ilovalar – Duolingo yoki Memrise kabi ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘yinlar va mashqlar orqali tilni o‘rganadilar. Bu usul, o‘rganishni qiziqarli va samarali qiladi.

Video va Audio Resurslar – YouTube va boshqa video platformalar yordamida o‘quvchilar tilni tabiiy, real hayotdagi suhbatlar orqali o‘rganishlari mumkin. Podcastlar ham bu borada foydali bo‘ladi.

Tahlil va Baholash – Quizlet yoki Kahoot kabi interaktiv platformalar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini tekshirib ko‘rishlari mumkin.

Onlayn ta’lim platformalaridan samarali foydalanish uchun bir nechta asosiy usullarni keltirish mumkin:

1. **Interaktiv metodlar** – Video darslar, mashqlar va o‘yinlar yordamida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash mumkin.
2. **Multimedia vositalari** – Audio, video va interaktiv materiallar yordamida til o‘rganishni yanada qiziqarli qilish mumkin.
3. **O‘quvchilarni faollashtirish** – Forumlar va guruh ishlari orqali o‘quvchilarni muloqotga jalb qilish, bu esa o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.
4. **Individual yondashuv** – Har bir o‘quvchining ehtiyojiga moslashtirilgan materiallar va metodlar yordamida o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirish muhim.

SAMR modeli onlayn ta'limda texnologiyalarni qanday ishlatish kerakligini tushuntiradi. Bu modelda texnologiya orqali o‘qitishni turli bosqichlarda qo‘llash mumkin:

Substitution (almashtirish) – Texnologiya an'anaviy darsni to‘liq almashtiradi (masalan, darsliklar o‘rniga elektron materiallar).

Augmentation (qo‘shimcha qilish) – Texnologiya darsni yaxshilaydi (masalan, video va audio materiallar qo‘llanadi).

Modification (o‘zgartirish) – Darsni yanada samarali qilish uchun texnologiya yordamida darsning tuzilishini o‘zgartirish mumkin.

Redefinition (yangi imkoniyatlar yaratish) – Texnologiya yordamida o‘quvchilarga yangi, ilg‘or imkoniyatlar taqdim etish.

Onlayn ta'limning eng katta afzalligi – bu o‘quvchilarga o‘z vaqtida va istalgan joyda o‘rganish imkoniyatini berishdir. Multimedia va interaktiv vositalar yordamida o‘quvchilar o‘qitishni yanada qiziqarli va samarali tarzda olib boradilar. Bundan tashqari, onlayn platformalar global miqyosda o‘qitish imkoniyatlarini yaratib, yangi tajriba almashish va xalqaro miqyosda o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Onlayn ta'lim platformalarining ba'zi kamchiliklari ham mavjud. Masalan, texnologiyaga aloqador muammolar, internetning past tezligi, yoki o‘qituvchilarning yangi metodlarga moslashishi kerakligi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilarning motivatsiyasini saqlash, ayniqsa, uzoq muddatli onlayn kurslarda, qiyin bo‘lishi mumkin. Kelajakda onlayn ta'limda texnologiyalar yanada rivojlanadi. Sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari yordamida o‘rganish jarayoni yangi bosqichga o‘tadi. Bu esa o‘quvchilarga yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribasini taqdim etadi. Sharq tillarini o‘qitishda onlayn ta'lim platformalari katta ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratib, o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu platformalardan samarali foydalanish uchun texnologiyalarni ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish va yangi metodlardan foydalangan holda o‘rganish jarayonini yanada rivojlantirish zarur.

Sharq tillarini o'qitishda onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish, multimedia vositalarini integratsiya qilish orqali o'quv jarayonini samarali qilishda katta ahamiyatga ega. Onlayn platformalar va multimedia texnologiyalarining ta'limga qo'shilishi, o'quvchilarga interaktiv va ko'p kanalli o'rganish tajribasini taqdim etadi, bu esa ularning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi.

Multimedia vositalari, ya'ni matn, tasvir, video va audio materiallari, Sharq tillarini o'rgatishda foydalanuvchilarning turli sezgi organlari orqali ma'lumot olishlarini ta'minlaydi. Masalan, onlayn platformalar orqali audio va video darslar, interaktiv mashqlar va testlar yordamida o'quvchilar nafaqat yangi so'zlar va grammatikani o'rganadilar, balki tillarni muloqotda samarali ishlatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Mayerning "Kognitiv multimedia o'rganish nazariyasi"ga ko'ra, multimedia materiallari matn va tasvirlar bilan birga taqdim etilganda, o'quvchilarning axborotni yaxshiroq tushunishi va eslab qolishi mumkin. Shu sababli, Sharq tilini o'qitishda video va audio materiallarini birgalikda ishlatish, masalan, tilni amaliy ravishda o'rgatishda samarali bo'ladi. Buning natijasida, o'quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatlari rivojlanadi, shuningdek, ular talaffuzni to'g'ri o'rgana oladilar.

Puentedura tomonidan taklif qilingan SAMR modeli (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) esa onlayn ta'limda multimedia texnologiyalarini qanday ishlatish bo'yicha yo'l-yo'riq beradi. Masalan, Substitution* bosqichida o'qituvchi an'anaviy darslarni elektron shaklda taqdim etadi, Augmentation bosqichida esa multimedia materiallari yordamida o'quvchilarni interaktiv faoliyatlarga jalb qiladi. Modification bosqichida, masalan, onlayn guruh ishlarida video-konferensiyalar yordamida, o'quvchilarni tilni o'rganish jarayonida yangi metodlar va texnologiyalar bilan tanishtiradi. Nihoyat, *Redefinition* bosqichida, texnologiyalar o'quvchilarga yangi va ilg'or tajribalarni yaratishga imkon beradi, masalan, onlayn forumlar orqali turli mamlakatlardan o'quvchilar bilan muloqot qilish.

Onlayn ta'lim platformalarida multimedia vositalaridan foydalanish, o'quvchilarni yanada faolroq ishtirok etishga undaydi. Masalan, video va audio materiallari orqali o'qituvchilar tilni o'rgatishda turli xil nuanslarni tushuntirishi mumkin, bu esa o'quvchilarni yanada ko'proq jalb qiladi. Bu interaktiv yondashuvlar, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularga o'rganish jarayonini qiziqarli qilishda yordam beradi.

Clark va Mayer (2011) "E-learning and the Science of Instruction" kitoblarida multimedia vositalarining samarali qo'llanilishi haqida batafsil fikr yuritadilar. Ularning fikriga ko'ra, o'quvchilarni interaktiv materiallar bilan ishlatish, ularning kognitiv faolligini oshiradi va o'rganish jarayonini samarali qiladi. Onlayn

platformalar esa o'quvchilarni o'z bilimlarini mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu tariqa, Sharq tilini o'qitishda onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarni motivatsiya qiladi, balki o'rganish samaradorligini ham sezilarli darajada oshiradi. O'quvchilarni multimedia texnologiyalari bilan ta'minlash, ularning tahliliy fikrlash va tilni tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi, shu bilan birga o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Sharq tilini o'qitishda onlayn ta'lim platformalari va ulardan foydalanish asoslari. Sharq tillarini o'qitishda ta'lim platformalari, o'quv materiallari, dars jadvali, vazifalarni va boshqa o'quv resurslar bilan ishlash usullari.

Savollar.

1. Onlayn ta'lim platformalarining Sharq tilini o'qitishda qanday afzalliklari mavjud?
2. An'anaviy o'qitish metodlari va onlayn ta'lim platformalari o'rtasidagi asosiy farqlar nimalar?
3. Onlayn ta'lim platformalaridan qanday interaktiv metodlar orqali samarali foydalanish mumkin?
4. SAMR modeli qanday ishlaydi va onlayn ta'limda qanday qo'llanadi?
5. Onlayn ta'limning ba'zi kamchiliklari haqida qanday fikrdasiz?
6. Onlayn ta'lim platformalarining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari qanday bo'ladi?
7. MOOC platformalari qanday imkoniyatlarni taqdim etadi?
8. Sharq tillarini o'rgatishda multimedia va interaktiv materiallarning roli nima?
9. Onlayn ta'limda o'quvchilarning motivatsiyasini qanday saqlash mumkin?
10. Texnologiyaning ta'lim jarayoniga integratsiyasi qaysi jihatlarga ta'sir qiladi?

2-MAVZU: VIDEO DARSLAR, VEBINARLAR VA ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISHGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR (2 SOAT)

Reja:

1. Ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qilishning ahamiyati. Videodarslar, vebinarlar va elektron darsliklar yaratishga asoslangan zamonaviy dasturiy vositalar.
2. Dasturiy vositalar va ularning imkoniyatlari. Adobe Premiere Pro, iMovie, Camtasia, OBS Studio, Adobe After Effects va Animaker dasturlari bilan ishlash.
3. Dasturlarni solishtirish.

Kalit so'zlar: *Dasturiy vositalar, Camtasia, Animaker, OBS Studio*

Videodarslar, vebinarlar va elektron darsliklar yaratishga asoslangan zamonaviy dasturiy vositalar. Adobe Premiere Pro, iMovie, Camtasia, OBS Studio, Adobe After Effects va Animaker dasturlari bilan ishlash. "Videodarslar, vebinarlar va elektron darsliklar yaratish uchun zamonaviy dasturiy vositalar" mavzusi o'quvchilarga ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qilish uchun kerakli bo'lgan dasturiy vositalarni o'rganishga imkon yaratadi., Adobe Premiere Pro, iMovie, Camtasia, OBS Studio, Adobe After Effects va Animaker kabi dasturlardan foydalanib, videodarslar, vebinarlar va elektron darsliklar yaratish jarayonlari keng ko'rib chiqiladi. O'quvchilar videolarni tahrirlash, vizual effektlar yaratish, interaktiv vebinarlar tashkil etish va elektron ta'lim materiallarini dizaynlashni o'rganadilar. Ushbu dasturiy vositalar yordamida o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish, o'quvchilarga aniq va tushunarli ta'lim berish mumkin bo'ladi. Bu dastur bilan ishlash usullari, interaktivlik va ta'lim materiallarini optimallashtirishning eng yaxshi usullari o'rgatiladi.

Har bir dasturning foydalanuvchilarga qanday yordam berishi va ular uchun qanday imkoniyatlar yaratishini ko'rib chiqamiz:

Adobe Premiere Pro: Agar siz professional video montaj bilan shug'ullansangiz va murakkab videolar yaratishga qiziqsangiz, Adobe Premiere Pro siz uchun mukammal variant. Bu dastur eng yaxshi video montaj va tahrirlash imkoniyatlarini taklif qiladi. U kengaytirilgan vositalarga ega bo'lib, har xil formatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Agar videolarni yuqori sifatda va batafsil tahrirlashni xohlasangiz, bu dastur juda mos keladi. Biroq, u animatsiyalar yaratishda juda kuchli emas va jonli efirlar uchun mos emas.

iMovie: Agar siz oddiy va tezkor video montajni xohlasangiz va Mac foydalanuvchisi bo'lsangiz, iMovie yaxshi tanlov. U intuitiv va oson ishlatiladi, ayniqsa yangi boshlovchilar uchun. Agar siz juda murakkab videolar yaratishni xohlamasangiz va faqatgina oddiy tahrirlash va videolarga matn yoki musiqani qo'shishni istasangiz, iMovie bunga juda mos keladi. Biroq, animatsiyalar yaratish imkoniyatlari juda cheklangan.

Camtasia : Agar siz o'qitish yoki trening videolarini yaratmoqchi bo'lsangiz, Camtasia ajoyib tanlov bo'ladi. U o'qituvchilar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun mo'ljallangan, chunki interaktiv va ta'lim materiallarini yaratish uchun juda qulay. U juda oson ishlatish mumkin va ekran yozib olish funktsiyasiga ega. Agar siz o'quv video materiallarini yaratishda yordamchi dastur izlayotgan bo'lsangiz, Camtasia siz uchun ideal.

OBS Studio : OBS Studio – bu jonli efirlar va translyatsiyalar uchun eng yaxshi vosita. Agar siz o'zining stream (jonli efir) dasturingizni boshlashni xohlasangiz yoki YouTube yoki Twitch kabi platformalarda jonli efirni boshqarishni xohlasangiz, bu dastur aynan siz uchun. U bepul va juda kuchli, ammo video montaj va animatsiyalar

yaratishda imkoniyatlari juda cheklangan. OBS Studio esa ko'proq jonli efirlar va video yozuvlar bilan shug'ullanish uchun mukammaldir.

Adobe After Effects : Agar siz video tahrirlash va animatsiyalar yaratishda professional darajaga chiqmoqchi bo'lsangiz, Adobe After Effects eng yaxshi variantlardan biri bo'ladi. Bu dastur orqali murakkab vizual effektlar va animatsiyalar yaratish mumkin. Agar siz video montajni oddiy darajada qilmoqchi bo'lsangiz, bu dastur murakkab va vaqt talab qilishi mumkin. Ammo, agar siz ijodiy va ta'sirchan animatsiyalarni yaratishni istasangiz, Adobe After Effects sizni kutmoqda.

Animaker : Agar siz ancha sodda va intuitiv dastur izlayotgan bo'lsangiz, Animaker yaxshi tanlovdir. Bu onlayn platforma bo'lib, oddiy animatsiyalar va videolar yaratish uchun mo'ljallangan. U juda oson ishlatiladi va turli xil shablonlarni taklif qiladi. Agar siz ta'lim videosi yoki animatsiya yaratishda yangi boshlovchi bo'lsangiz, Animaker boshlash uchun yaxshi variant. Ammo, bu dastur jonli efirlar yoki murakkab videolar uchun mos kelmaydi.

Har bir dastur o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agar siz professional tahrir va montaj qilishni xohlasangiz, Adobe Premiere Pro yoki Adobe After Effects ga qarang. Camtasia ta'lim materiallari yaratish uchun ajoyib, OBS Studio esa jonli efirlar uchun ideal. Agar siz sodda va foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega dastur istasangiz, iMovie yoki Animaker ni tanlashingiz mumkin.

Dastur	Asosiy Xususiyatlar	Foydalanuvchi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Adobe Premiere Pro	Professional video montaj, kengaytirilgan tahrir vositalari	Tajribali video montajchilar	Yuqori sifatli video tahrir, kengaytirilgan formatlarni qo'llab-quvvatlash	Murakkab, yangi boshlovchilar uchun og'ir
iMovie	Oddiy video tahrirlash, matn va musiqani qo'shish	Mac foydalanuvchilari	Oson ishlatish, oddiy video tahrirlash uchun qulay	Animatsiya yaratish imkoniyatlari cheklangan
Camtasia	Ekran yozib olish, ta'lim videolari yaratish	O'qituvchilar, trening mutaxassislari	Oson ishlatish, ta'lim videosi yaratish uchun qulay	Murakkab video montaj uchun cheklangan imkoniyatlar
OBS Studio	Jonli efirlar, video translyatsiyalar	Streamerlar, jonli efir foydalanuvchilari	Bepul, kuchli translyatsiya imkoniyatlari	Video montaj va animatsiya uchun cheklangan vositalar
Adobe After Effects	Vizual effektlar, animatsiyalar yaratish	Ijodiy video montajchilar	Murakkab animatsiyalar va vizual effektlar yaratish	Murakkab va vaqt talab qiladigan dastur, yangi boshlovchilar uchun mos emas
Animaker	Oddiy animatsiyalar	Yangi boshlovchilar,	Sodda va intuitiv interfeys,	Murakkab video tahriri va jonli

	yaratish, onlayn platforma	o'qituvchilar	animatsiya yaratish uchun qulay	efirlar uchun mos emas
--	----------------------------	---------------	---------------------------------	------------------------

